



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna

Namangan davlat universiteti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7720836>

ARTICLE INFO

Received: 02nd March 2023

Accepted: 10th March 2023

Online: 11th March 2023

KEY WORDS

Muloqot, ta'lif, tarbiya, o'quvchi, kommunikativ, kompetensiya, layoqat, individual, zamonaviy yondashuv, ta'lif sifati, musobaqalashmoq, raqobatlashmoq, bellashmoq, samaradorlik, tushunuvchanlik, moslashuvchanlik, yutuqlilik, muvaffaqiyatlilik, natijalilik, xususiyat, sifat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sind o'quvchilaridagi kommunikativ kompetensiyanı rivojlantirish haqida fikrlar yuritilgan. Shu bilan birga kommunikativ kompetensiyanı rivojlanishida muloqotning o'rni va ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari va kommunikativ kompetensiyanı rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.

Bugungi kunda barcha sohada keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda jumladan, ta'lif sohasi ham bundan mustasno emas. Boisi bizning kelajagimiz va ertangi kunimiz davomchilari har tomonlama yetuk va raqobatbardosh kadr bo'lib yetishishlari barchaning diqqat markazidadir. Bu albatta Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonivichning say-harakatlari natijasidir deya olamiz. Boisi, davlatimiz rahbari tomonidan chiqarilayotgan farmon va qarorlarda bu o'z aksini topmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-fevraldag'i "Xalq ta'lifi tizimini isloh qilish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi F-22-sonli farmoyishlari va bu farmoyishga ko'ra tuzilgan Milliy kengash ham o'z faoliyatini boshlagan, kengash raisi esa bevosita Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovichni o'zlar hamda kengash a'zolari barcha vazirlar va markaz rahbarlarini tashkil etadi. Har bir xalqni rivojlanishi uchun ta'lif birinchi o'rinda isloh qilinishi va rivojlantirilishi juda muhim. Yil boshida Prezidentimiz tomonidan xalqqa yo'llangan Murojaatnomada belgilangan topshiriqlar ijrosi muhokama qilindi hamda yil yakuniga qadar bajarilishi lozim bo'lgan "Xalq ta'lifi tizimini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar" belgilandi. Bularning barchasi kelajagimiz bo'lgan farzandlarimiz uchundir. Dastlab Maktabgacha ta'lif sohasida keng ko'lamli islohotlar olib borildi va endilikda barcha e'tibor Umumiy o'rta ta'limga qaratildi.



Bugungi kunda maktablarda joriy qilingan DTSdan bosqichma-bosqich "Milliy o'quv dasturi" ga o'tilmoqda. 2021-2022-o'quv yilida 1-2-sinf o'quvchilari "Milliy o'quv dasturi" asosida tahsil olmoqdalar. 2026-2027-o'quv yilgacha barcha sinflar shu dastur asosida tahsil olishlari rejallashtirilgan va bu bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga Finlandiya ta'lim tizimi ham bizning ta'lim tizimimizga kirib kelmoqda. Bu islohotlar zamirida esa yoshlarimizni jahon miqyosiga chiqarish va hayotda o'z o'rniiga ega bo'lishini ta'minlash nazarda tutilmoqda.

Ertangi kunimiz va mamlakatimiz tayanchi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli va intellektual salohiyatga ega, o'zining g'oyalari bilan dadil harakat qilishga undaydigan ta'lim dasturlari, bugungi pedagog xodimlarning diqqat markazida turibdi. Bugungi kundagi har bir yangilik, shubhasiz, o'qituvchilarni qiziqtiradi va ularni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga, o'z fanini puxta o'rganishga undaydi. Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan bo'lsa, yangi Milliy o'quv dasturining mazmuni esa 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo'lib, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir.

O'quv dasturlari va darsliklarda baholash jarayoni faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida esa o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilarning yoshi, qiziqishiga ko'ra mavzular ham qayta ishlandi. Maqsad esa o'quvchilarni hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash, shu bilan birga bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishidir.

Milliy o'quv dasturi asosidagi fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiradi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritilgan. Bu esa mavzuni yanada mustahkam egallahsga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayoni nazariy va amaliy bilimlarga tayanadi. Bu jarayonlarni amalgaga oshirish uchun esa nutqiy muloqot eng zarur vosita hisoblanadi. Muloqot insonning ijtimoiy va ongli mavjudot, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojidir. «Muloqot» tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi. Yoki: **muloqot** – odamlar o'rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o'zaro ta'sirning yagona yo'lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo'lgan aloqalarni o'rnatish va rivojlatirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to'liq ta'rifidir.

Muloqotning umumiy falsafiy nazariyasining masalalarini G.S. Batishcheva, L.P. Buyeva, M.S. Kogan, V.M. Sokovnina asarlarida ko'rish mumkin. Muloqot toifasining ahamiyati va uning muvaffaqiyati uchun zarur bo'lgan barcha shaxsiy xususiyatlarni A.A. Brudniy qadimgi davrlarda qayd etilgan deya izohlaydi.. Miloddan avvalgi V asrda sofistlar kommunikativ masalalarga e'tibor qaratib, uning uchta muhim jihatini aniqlab berdilar:

1. boshqa odamlar bilan muloqotni anashu odamlarga ta'sir qilish deb hisoblash;
2. shaxsning boshqa shaxslar bilan kommunikativ aloqasi tasodify emas;
3. shaxsning kommunikativ aloqasi ham xavfli hodisa bo'lishi mumkinligini aytib o'tadi.

Sokrat muloqotda shaxsning o'zini-o'zi bilishning kuchli vositasini ko'ra oldi va Platon o'zaro aloqa g'oyasini ilgari surdi. Ko'p o'tmay Kant o'z fikrlarini ishlab chiqdi va unga ko'ra



o'ylash o'z-o'zidan gapishtirish demakdir, deb hisobladi. Ekzistensialistlar (**Ekzistensialistlar** fikricha, olam ma'nosiz va uni bilib bo'lmasligi abadiy, inson umri o'tkinchi bo'lganligi uchun ham dahshatlidir) esa allaqachon o'zaro tushunishni muloqotning mohiyati deb hisoblashgan. Keyinchalik Alberto Moravia o'zining "O'zaro munosabat" qissasida shunday degan edi: "Asosiy bo'lish - umumiylig xususiyatiga ega bo'lish demakdir".

Xorijiy psixologiya bo'yicha adabiyot ma'lumotlarini o'rganish natijasi shuni ko'rsatdiki, "muloqot qobiliyatları" tushunchasi ba'zi adabiyotlarda uchramaydi va qabul qilinmaydi. Xorijiy psixologlar ko'pincha "kommunikativ kompetentsiya" atamasini ishlata dilar. Kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish va takomillashtirish muammosiga zamonaviy yondashuv shundan iboratki, o'rganishlar o'z harakatlariga asoslangan o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish sifatida qarab kelindi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetentsiya boshqa odamlar bilan zarur aloqalarni o'rnatish, qo'llab-quvvatlash qobiliyatini ham anglatadi. Kompetentsiya tushunchasi kommunikativ jarayonning samarali oqimini ta'minlaydigan ma'lum bilim va ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi. Kompetensiya so'zining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'z inglizcha "competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq", "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa "musbaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida keladi.

Bizning eng muhum vazifalarimizdan biri ham o'quvchilarimizda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya barcha fanlar uchun muhimdir. Nafaqat ta'lim va tarbiya jarayonida ayniqsa, inson hayotda o'z o'rnini va yashashdan maqsadini topa olishi uchun juda kerakli ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Ta'kidlash joizki, kommunikativ kompetensiya uchun eng avvalo shaxs mustaqil fikriga ega bo'lishi, turli vaziyatlarda tez muloqotga kirishishi talab etiladi. Ta'lim va tarbiya farzand dunyoga kelmasin avval boshlanishini va jarayon umrining oxiriga qadar davom etishi haqida juda ko'p fikrlar mavjud.

Boshlang'ich ta'lim, ta'lim jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu bosqichda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish barchaga birdek mas'uliyat yuklaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilariga va shu bilan birga o'quvchilarning ota-onalariga. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning quyidagi usullari mavjud:

- O'quvchilar fikrini hamisha hurmat qilish;
- O'quvchilar tomonidan berilayotgan savollarga to'liq javob berish;
- Qiziqishlarini hamisha qo'llab-quvvatlash;
- Muammoli vaziyatlar orqali mustaqil firk yuritishga undash;
- Bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish;
- Tasavvuri va ijodiy faoliyatiga erkinlik berish;
- Sport mashg'ulotlariga jalb etish;
- Mantiqiy savollar berish;

va boshqalarni sanab o'tishimiz mumkin. Bizning bosh maqsadimiz farzandlarimizni komil inson qilib tarbiyalashdir. Har birimiz yuqorida keltirilgan usullardan foydalansak ayni muddao bo'lar edi. Bu o'z navbatida ta'lim sifatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Biz



o'quvchilarni boshlang'ich sinfdanoq har qanday vaziyatlarga tez moslashuvchan, mustaqil fikriga ega va adabiy til normalariga amal qilgan holda erkin muloqotga kirisha oladigan qilib tarbiyalab borsak orzu qilgan kelajagimizni yoshlarmiz qo'li bilan yarata olamiz.

Boshlang'ich sinf ta'lif tizimining asosiy va muhim qismi hisoblanadi. Bu bosqichda bolani komillik sari yetaklashning dastlabki ishlari amalgalashadi. Shuning uchun ham bu bosqichga alohida e'tibor berish bugungi kunning asosiy masalasi deb qaralmoqda.

Hozirgi kunda ta'lif tizimida, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu tadqiqotlardan ko'zlangan maqsad esa albatta kelgusida o'quvchilarni har tomonlama barkamol shaxs etib voyaga yetkazishdir.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarining boshlang'ich sinflarida darslarni o'qitishning zamonaviy pedagogik usullaridan foydalanish va axborot texnologiyalarni ta'lif jarayoniga to'la joriy etish, dars jarayonlariga kompetensiyaviy yondashish, ulardan samarali foydalanish ta'lif samaradorligini o'sishiga olib keladi. Bu samaradorlik yosh avlodni kamol topishida asosiy bo'g'in vazifasini bajaradi. Biz har tomonlama yetuk va raqobatbardosh yoshlarni tarbiyalashimiz nafaqat, tarbiyalashimiz shu bilan birga ta'lifni ham unga uyg'unlashtirishimiz talab etiladi.

References:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5848414>
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob
3. Rubinshtein S. L. Umumiy psixologiya asoslari - Sankt-Peterburg: "Piter" nashriyoti, 2000. - 712 p.
4. Shadrikov V.D. Psixologiyaga kirish: inson qobiliyatları / V.D. Shadrikov. - M.: Logos, 2002
5. Bodalev A.A. Muloqot psixologiyasi. Ensiklopedik lug'at Jami. ed. A.A. Bodaleva. - M. "Kogito-markaz" nashriyoti, 2011 yil
6. Dubrovina I.V., Danilova E.E., Prixojan A.M. Psixologiya / Ed. I. V. Dubrovin. - M.:AKADEMA, 2003
7. Rasulov R., Mo'ydinov Q. Nutq madanyati va madanyati san'ati.O'quv qo'llanma. -T., 2010. 28-30-b.
8. Jo'rayev B.O. Bola- olam bezagi.Pedagoglar uchun uslubiy qo'llanma.Namangan 2017y 7-betlar.
9. <https://donschool86.ru>. Pedagogik jarayonda kommunikativ madaniyat. O'qituvchining kommunikativ madaniyatining xususiyatlari, 3-8-betlar.
10. <https://lex.uz/uz/docs/-5848414>
11. <https://saarj.com/academicia-current-issue/>
12. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 5, May 2022
SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal 249-251 DOI: 10.5958/2278-4853.2022.00116.1DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS